

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



Ro'yhatga olingan: *BD 60230200 - XMIN1204 -*
424

2025-yil "28" avgust

XALQARO MINTAQASHUNOSLIK
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohasi: 310 000 – Ijtimoiy va xulq-atvoriga mansub fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 60310200 – Xalqaro munosabatlar

Toshkent – 2025

Fan/modul kodi XMIN1204	O'quv yili 2025-2026	Semestr 2	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Xalqaro mintaqashunoslik	60	60	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni:</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalariga mintaqaviy jarayonlarning nazariy asoslarini, mintaqashunoslikning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, talabalarni mintaqalar joylashuvi va siyosiy hamda iqtisodiy ahamiyati to'g'risidagi bilimlarini chuqurlashtirish, mintaqalarning turli tashkilotlardagi hamkorligi haqida bilim berish, mintaqaviy jarayonlarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni faollashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini faollashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyat ta'minlanadi.</p> <p>Xorij tajribasiga muvofiqligi</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda TOP-300 talik ro'yxatiga kiruvchi Jorjtaun universiteti ta'lim dasturi tajribasini o'rgangan holda tuzildi.</p> <p>https://bulletin.georgetown.edu/schools-programs/sfs/majors-and-certificates/regional-and-comparative-studies/</p> <p>II. Asosiy qism (ma'ruza va seminar mashg'ulotlar)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi ma'ruza mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">2-semestr</p> <p>1. Xalqaro mintaqashunoslik faniga kirish (2 soat)</p> <p>2. Xalqaro mintaqashunoslikka tegishli nazariyalar (2 soat)</p>			

3. Yevropaning geosiyosiy xaritasi va mintaqaviy integratsion jarayonlar (2 soat)
4. Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqining o'rtasidagi hamkorligining asosiy bosqichlari. Yevropada xavfsizlik muammolari (2 soat)
5. Afrika mintaqasining o'ziga xos jihatlari va integratsion jarayonlar. Traybalizm muammolari (4 soat)
6. Osiyodagi mintaqaviy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari. Osiyodagi mintaqaviy tashkilotlar (4 soat)
7. Janubiy Osiyoda integratsion jarayonlar (2 soat)
8. ASEAN. Osiyo-Tinch okeani Iqtisodiy ittifoqi: muammolari va istiqbollari (2 soat)
9. Jahon hamjamiyatida Avstraliya. Mintaqada o'zaro hamkorlik va raqobat (2 soat)
10. G'arbiy yarimshar geosiyosiy strukturasi. G'arbiy yarimshardagi NAFTA, MERCOSUR va boshqa tashkilotlar (4 soat)
11. Lotin Amerikasining hududiy-geosiyosiy o'rni (2 soat)
12. Markaziy Osiyoda integratsion jarayonlar (2 soat)

II.II. Fan tarkibiga quyidagi seminar mavzular kiradi:

2-semestr

1. Xalqaro mintaqashunoslik faniga kirish (2 soat)
2. Xalqaro mintaqashunoslikka tegishli nazariyalar (2 soat)
3. Yevropaning geosiyosiy xaritasi va mintaqaviy integratsion jarayonlar (2 soat)
4. Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqining o'rtasidagi hamkorligining asosiy bosqichlari. Yevropada xavfsizlik muammolari (2 soat)
5. Afrika mintaqasining o'ziga xos jihatlari va integratsion jarayonlar. Traybalizm muammolari (4 soat)
6. Osiyodagi mintaqaviy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari. Osiyodagi mintaqaviy tashkilotlar (4 soat)
7. Janubiy Osiyoda integratsion jarayonlar (2 soat)
8. ASEAN. Osiyo-Tinch okeani Iqtisodiy ittifoqi: muammolari va istiqbollari (2 soat)
9. Jahon hamjamiyatida Avstraliya. Mintaqada o'zaro hamkorlik va raqobat (2 soat)
10. G'arbiy yarimshar geosiyosiy strukturasi. G'arbiy yarimshardagi NAFTA, MERCOSUR va boshqa tashkilotlar (4 soat)
11. Lotin Amerikasining hududiy-geosiyosiy o'rni (2 soat)

12. Markaziy Osiyoda integratsion jarayonlar (2 soat)

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Seminar mashg'ulotlar multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mashg'ulot jarayonida mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar va tavsiya etilgan mavzular:

Talabalarni mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.

Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMIS axborot tizimida ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- seminar mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:


- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;

Xalqaro jurnalistika fakulteti dekani



A. Matyakubov

Siyosiy fanlar
kafedrasini mudiri



S. Saidov

Universitet axborot resurs
markazi direktori



S. Kayumova

	<p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <p>1. Mirziyoyev Sh.M. "Tahliliy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak." O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017 yil 16 yanvar, №11.</p> <p>2. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz." — T.: "O'zbekiston", 2016.- 56 b.</p> <p>3. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi." — T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b.</p> <p>4. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz." — T.: O'zbekiston, 2017. - 488 b.</p> <p>5. Барыгин И.Н. Международное регионоведение: учебное пособие. - СПб: Питер, 2013.</p> <p>6. Каримова Н.Е. Социально-политические процессы в зарубежных странах Востока и Запада: учебное пособие — Т.: ТашГИВ, 2013. - 167 с.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>1. www.president.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti</p> <p>2. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali</p> <p>3. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi</p>
7.	O'quv dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Dastur universitet Kengashining 2025-yil <u>28</u> - <u>avgust</u> dagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan (<u>1</u> - sonli bayonnoma).
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar:</p> <p>Muitov D. – O'zDJTU "Siyosiy fanlar" kafedrasida dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi.</p> <p>Temirbayeva A.K. – O'zDJTU "Siyosiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Z.Zaripova – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi.</p> <p>B.Irismetov – TDMSI dotsenti, f.f.n., dotsent.</p>

	<p style="text-align: center;">- ilmiy maqola, tezislari va ma'ruza tayyorlash; 2-semestr</p> <p>1. Kurs tuzilishi va predmeti. (2 soat)</p> <p>2. Umumjahon muammolar. (2 soat)</p> <p>3. Yevropadagi integratsion jarayonlar. (2 soat)</p> <p>4. NATO va Yevropa xavfsizligi masalalari. (2 soat)</p> <p>5. O'zbekiston bilan hamkorlik. (2 soat)</p> <p>6. G'arbiy yarimshardagi NAFTA, MERCOSUR va boshqa tashkilotlar. (2 soat)</p> <p>7. NAFTA - muammolari va istiqbollari. (2 soat)</p> <p>8. Janubiy Amerika umumiy bozorining vujudga kelishi. (2 soat)</p> <p>9. MERCOSUR. Amerika Davlatlari Ittifoqi (ADI). (2 soat)</p> <p>10. Afrikaning geosiyosiy tuzilishi. (2 soat)</p> <p>11. Afrikadagi integratsion jarayonlar. (2 soat)</p> <p>12. Afrika geosiyosiy tuzilishi. Afrika Birligi Ittifoqi - milliy kelishuvning yutuqlari va muammolari. (2 soat)</p> <p>13. Afrikadagi integratsion jarayonlar. (2 soat)</p> <p>14. Afrikadagi avtoritarizm va traybalizm: turlari, rivojlanish tarixi, demokratiyaga o'tish istiqbollari. (2 soat)</p> <p>15. Osiyo mintaqaviy tashkilotlari. (2 soat)</p> <p>16. Mintaqadagi alohida mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlari. (2 soat)</p> <p>17. Osiyodagi mintaqaviy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari. Arab Davlatlari Ligasi (ADL), Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti, Islom Konferensiyasi Tashkiloti. (2 soat)</p> <p>18. Markaziy Osiyoda integratsion jarayonlar. (2 soat)</p> <p>19. Markaziy Osiyo geosiyosiy tuzilishi. (2 soat)</p> <p>20. Markaziy Osiyo davlatlarining EKOdagi boshqa davlatlar bilan hamkorligi. Markaziy Osiyoda integratsion jarayonlar (SHHT, MOHT va boshqalar). (2 soat)</p> <p>21. Kaspiy mintaqasidagi geosiyosiy vaziyat. (2 soat)</p> <p>22. Janubiy Osiyoda integratsion jarayonlar. (2 soat)</p> <p>23. Janubiy Osiyo mamlakatlarning o'ziga xosligi. (2 soat)</p> <p>24. Yaponiya va "Osiyo yo'lbarlari". Osiyo rivojlanish modelining xususiyatlari. Yangi industrial davlatlarning iqtisodiy rivojlanish sabablari va spetsifikasi: Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur. (2 soat)</p> <p>25. ATO. Siyosiy-iqtisodiy va geosiyosiy tavsifnomasi. Mintaqada o'zaro hamkorlik va raqobat. (2 soat)</p> <p>26. ATO jahon hamjamiyatida. (2 soat)</p> <p>27. ASEAN va ATEs. (2 soat)</p> <p>28. Integratsiyaning muammolari va istiqbollari. (2 soat)</p>
--	---

	29. Jahon hamjamiyatida Avstraliya. Avstraliya Jahon hamjamiyatida tutgan o'ri. (2 soat) 30. Mintaqashunoslikning ilmiy-metodologik asoslari. (2 soat)
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: <ul style="list-style-type: none"> • xalqaro mintaqashunoslik fanining asosiy tushunchalari, yo'nalishlari va mintaqaviy tahlil metodlariga oid bilimlarga ega bo'ladi; • dunyoning turli mintaqalaridagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar haqida tahliliy fikr yurita oladi va ularni o'zaro solishtira oladi; • mintaqaviy muammolarni hal etishda xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy integratsiya bloklarining rolini tushunadi va baholay oladi; • global va mintaqaviy xavfsizlik, siyosiy barqarorlik hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot kabi masalalarni mintaqalar kesimida o'rganadi; • mintaqalarga oid statistik ma'lumotlar, rasmiy hujjatlar va xalqaro tahliliy manbalarni izlab topish, o'qish va tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi; • mintaqaviy siyosatni tushunish va mintaqalarning o'zaro munosabatlarini baholashda ilmiy-nazariy yondashuvlardan foydalana oladi; • O'zbekistonning mintaqaviy siyosati va tashqi aloqalarini xalqaro kontekstda tahlil qila oladi va mintaqashunoslik doirasida mustaqil tadqiqot olib borishga tayyor bo'ladi.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; • seminar mashg'ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruh, mikroguruh bo'lib ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ga ko'ra fanga ajratilgan kredit beriladi. Talabalarning bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan

	tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" talablari asosida belgilanadi. Talabalarning bilimni baholash mezonlari: 5 (a'lo) baho – talaba seminar mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to'g'ri tahlil etish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'g'ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi. 4 (yaxshi) baho – talaba seminar mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba'zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muvaffaqiyatli amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi. 3 (qoniqarli) baho – talaba seminar mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talaba fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi. 2 (qoniqarsiz) baho – talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. S.Sh.Saidov. Markaziy Osiyo: Fuqarolik jamiyati va mintaqaviy integratsiya muammolari. Monografiya. - T.: "Ilm ziyo zakovat", 2023. – 216 b. 2. R.Z.Djumayev, D.I.Madaminova, X.I.Mustapova, B.S.Suyunova. Siyosiy tahlil: O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020. – 155 b. +170 3. I.B.Masharipov. Siyosatshunoslik. Darslik. – Andijon, 2025. – 450 b. +170